

## **“Pochta injiniringida ilg‘or texnologiyalar” fani bo‘yicha yakuniy nazorat savollari**

### **“Bilish” darajasiga mansub savollar**

1. Pochta injiniringi fani nima va u pochta tizimining samaradorligini oshirishda qanday yordam beradi?
2. Universal pochta xizmati tamoyillari nimalardan iborat?
3. Pochta tizimida ishlatiladigan asosiy axborot tizimlari turlarini sanab bering.
4. Pochta xizmatlarida qo‘llaniladigan avtomatlashtirilgan saralash tizimlari nima?
5. Blokcheyn texnologiyasining pochta tizimidagi asosiy vazifalarini ayting.
6. IoT (Internet of Things) qurilmalari pochta tizimida nima maqsadda ishlatiladi?
7. Elektron tariflash tizimi deganda nimani tushunasiz?
8. Pochta logistikasida sun‘iy intellektning asosiy qo‘llanish yo‘nalishlarini sanang.
9. Pochta ombori xavfsizligi bo‘yicha milliy va xalqaro standartlar nomlarini keltiring.
10. Xizmat sifati indeksleri (KPI) nima?
11. Pochta operatori va abonent o‘rtasidagi aloqa kanallarini sanang.
12. Dronlar va uchuvchisiz transport vositalarining pochta tizimidagi vazifasi nima?
13. Milliy pochta tizimida logistik axborot tizimlari qaysi resurslarni boshqaradi?
14. Xalqaro pochta tizimlarida integratsiyani ta‘minlovchi mexanizmlar qanday nomlanadi?
15. Robotlashtirilgan omborlar (WMS) tizimining tarkibiy qismlarini ayting.
16. Elektron to‘lov tizimlarining pochta xizmatidagi o‘rnini ta‘riflang.
17. Jo‘natmalarni qabul qilishdan yetkazib berishgacha bo‘lgan asosiy bosqichlarni sanang.
18. Abonent ma‘lumotlarini boshqarish tizimi (CRM) nima?
19. Pochta xizmatida shaffoflik va moliyaviy nazorat nima uchun muhim?
20. Transport jarayonlarida texnologik nazorat tushunchasini izohlang.

## **“Tushunish” darajasiga mansub savollar**

1. Axborot tizimlari pochta jo‘natmalarini qabul qilish, saralash va yetkazib berish jarayonida qanday ishlaydi?
2. Avtomatlashtirilgan saralash tizimlari paketlarni tez va xatosiz saralashga qanday yordam beradi?
3. Blokcheyn texnologiyasi jo‘natmalarni kuzatishda va shaffoflikni ta’minlashda qanday afzalliklar beradi?
4. Elektron tariflash tizimida jo‘natma narxini avtomatik hisoblash jarayoni qanday amalga oshiriladi?
5. Xalqaro pochta tizimlarida milliy operatorlar bilan integratsiya qanday amalga oshiriladi?
6. Universal pochta xizmati tamoyillari milliy va xalqaro tizimlarda keng qamrovni qanday ta’minlaydi?
7. Logistik axborot tizimlari operator ish yukini kamaytirishda qanday rol o‘ynaydi?
8. Elektron to‘lov tizimlari moliyaviy boshqaruvni qanday soddalashtiradi?
9. Sun’iy intellekt yordamida optimal jo‘natma marshrutlarini yaratish jarayoni qanday amalga oshiriladi?
10. Xizmat sifati monitoringi va mijoz qoniqishi o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday aniqlanadi?
11. Robotlashtirilgan omborlar an’anaviy omborlardan qanday afzalliklarga ega?
12. IoT qurilmalari real vaqt rejimida jo‘natmalarni kuzatishda mijozga qanday qulayliklar yaratadi?
13. Avtomatlashtirilgan saralash tizimlari va inson amaliyoti o‘rtasidagi samaradorlik farqi nimada?
14. Pochta ombori xavfsizligini ta’minlashda video monitoring va sensorlar qanday ishlaydi?
15. Elektron tijorat jo‘natmalarini boshqarishda maxsus tizimlarga nima uchun ehtiyoj bor?
16. Tarif va to‘lovlarni elektron hisoblash tizimi mijoz qoniqishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
17. Milliy va xalqaro standartlarga muvofiq transport jarayonining nazorati qanday amalga oshiriladi?
18. Abonent ma’lumotlarini boshqarish tizimi operator uchun qanday qulayliklar yaratadi?
19. Xizmat sifati indekslarini aniqlash va ularni amaliyotda qo‘llashning mohiyati nimada?

20. Dronlarning ishlash mexanizmi yetkazib berish xarajatlariga qanday ta'sir qiladi?

### **“Amalda qo‘llash” darajasiga mansub savollar**

1. Milliy pochta operatori axborot tizimlaridan foydalangan holda abonent ma'lumotlarini boshqarishni qanday tashkil qilishi mumkin?
2. Logistika axborot tizimlaridan foydalangan holda jo'natmalarni samarali boshqarish strategiyasini misolda ko'rsating.
3. Pochta ombori xavfsizligini mustahkamlashda sensorli kirish texnologiyasini amaliyotda qanday qo'llash mumkin?
4. Universal pochta xizmatining milliy darajadagi ijrosi uchun elektron tizimlardan foydalanish rejasini ayting.
5. Dronlar va avtonom transport vositalarini yetkazib berish jarayoniga tatbiq etish tartibini misol qiling.
6. Abonentlar to'lovlari va kvitansiyalarini avtomatlashtirilgan tizim orqali monitoring qilish usulini ko'rsating.
7. Robotlashtirilgan omborlarda paketlarni saqlash jarayonini amaliyotda qanday optimallashtirish mumkin?
8. Milliy pochta tizimida xizmat standartlarini real vaqt rejimida monitoring qilish jarayonini ko'rsating.
9. Elektron tariflash tizimini amaliyotda joriy etish orqali tezkor hisoblashni qanday amalga oshirish mumkin?
10. Axborot tizimlari yordamida pochta operatorining moliyaviy nazoratini oshirish usullarini ayting.
11. Avtomatik jo'natma kuzatuv tizimlarini amaliyotga tatbiq etish orqali operator xizmatini qanday yaxshilash mumkin?
12. Milliy pochta tizimida xizmat sifati indekslarini real amaliyotda kuzatish tartibini keltiring.
13. Pochta tizimida xizmat tezligi va sifatini oshirish uchun IT tizimlaridan foydalangan holda amaliy reja tuzing.
14. Abonent bilan aloqa jarayonini interaktiv tizimlar orqali tashkil qilish modelini ko'rsating.
15. Elektron tijorat jo'natmalarini saralash tizimiga amaliy qo'llash jarayonini tushuntiring.
16. Ombor xavfsizligida sun'iy intellekt tizimlarini qo'llash amaliyotini ko'rsating.
17. Xizmat sifati monitoringi natijalari orqali xizmatni yaxshilash imkoniyatini amalda qanday yaratish mumkin?

18. Resurslardan samarali foydalanishda logistik axborot tizimlarining amaliy foydasini misol keltiring.
19. Jo‘natmalarni qabul qilishdan yetkazib berishgacha nazorat qilish mexanizmini amaliyotda qo‘llang.
20. Pochta xizmatlarida xarajatlarni kamaytirish uchun qaysi texnologik strategiyani qo‘llash eng samarali?

### **“Tahlil” darajasiga mansub savollar**

1. Milliy pochta tizimida xizmat sifati monitoringi va transport jarayonining samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiling.
2. Pochta to‘lovlarining elektron shakllarini tahlil qilib, ulardagi moliyaviy risklarni baholang.
3. Pochta ombori xavfsizligi va jo‘natmalarni nazorat qilish texnologiyalarining afzallik va kamchiliklarini tahlil qiling.
4. Logistika axborot tizimlari yordamida xizmat tezligi va xarajatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiling.
5. Universal pochta xizmatining xalqaro standartlarga mosligini tahlil qilib, uning mijoz qoniqishiga ta’sirini aniqlang.
6. Elektron tariflash tizimining operator daromadiga ta’sirini tahlil qilib bering.
7. Dronlar va avtonom transport vositalarining xavfsizlik jihatlarini tahlil qiling.
8. Robotlashtirilgan omborlar va an’anaviy omborlar samaradorligini o‘zaro solishtiring va tahlil qiling.
9. Pochta xizmatlarida xizmat sifati indekslarining mijoz qoniqishiga ta’sirini tahlil qiling.
10. Axborot tizimlari yordamida jo‘natmalarni boshqarishdagi xatolarni tahlil qilish usullarini ayting.
11. Xalqaro va milliy standartlarga muvofiq texnologik jarayonlardagi farqlarni tahlil qiling.
12. Abonent bilan aloqa jarayonidagi texnologik vositalarning samaradorligini tahlil qiling.
13. Elektron to‘lov tizimlari va an’anaviy to‘lov usullarini xavfsizlik jihatidan tahlil qiling.
14. Pochta tizimida xizmat tezligi va kuzatish tizimlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiling.
15. Universal pochta xizmatining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini tahlil qiling.
16. Pochta ombori xavfsizligida qaysi mexanizmlar eng samarali ekanligini tahlil qiling.

17. Elektron tizimlar yordamida pochta xizmatlarining ishonchlilik darajasini tahlil qiling.
18. Avtomatlashtirilgan saralash tizimlari va inson amaliyoti ko'rsatkichlarini tahlil qiling.
19. Abonent ma'lumotlarini boshqarish tizimi orqali xizmat sifatiga ta'sirini tahlil qiling.
20. Logistika axborot tizimlari orqali xarajatlarni kamaytirish jarayonini tahlil qiling.

### **“Sintez va xulosa” darajasiga mansub savollar**

1. Pochta tizimida IT, elektron to'lov va kuzatuv tizimlarini birlashtirib, milliy xizmat strategiyasini yarating.
2. Dronlar va avtonom transport vositalari yordamida yetkazib berishning yangi amaliy modelini tuzing.
3. Robotlashtirilgan omborlar va WMS tizimini optimallashtirish bo'yicha yangi strategiya ishlab chiqing.
4. Universal pochta xizmati uchun innovatsion xizmat modellarini yaratish yo'llarini taklif qiling.
5. Elektron to'lov va tariflash tizimlarini integratsiyalash orqali moliyaviy boshqaruv strategiyasini tuzing.
6. Xalqaro standartlarga mos xizmat sifati monitoringi va tezkor javob tizimini integratsiyalash rejasini tuzing.
7. Logistika tizimlari va dronlarni birlashtirib, yetkazib berish aniqligini oshirish modelini yarating.
8. AI yordamida pochta xizmatlaridagi xatolarni nolga tushirish strategiyasini ishlab chiqing.
9. Ombor xavfsizligi va transport jarayonlarini birlashtiruvchi operator xavfsizligi modelini yarating.
10. Milliy pochta operatori uchun universal xizmatlarni optimallashtirish bo'yicha amaliy reja tuzing.
11. Elektron tijorat jo'natmalarini boshqarishda xizmat tezligini oshirish strategiyasini yarating.
12. Abonent bilan aloqa jarayonini avtomatlashtirilgan interaktiv modelga o'tkazish loyihasini tuzing.
13. Sun'iy intellekt va IoT qurilmalarini birlashtirib, yangi kuzatuv tizimi modelini ishlab chiqing.
14. KPI indeksleri va transport jarayonlarini birlashtirib, samaradorlikni oshirish strategiyasini yarating.

15. Universal pochta xizmatining sifatini oshirish uchun integratsiyalashgan innovatsion tizim modelini yarating.
16. Elektron to'lov, tariflash va monitoring tizimlarini birlashtiruvchi amaliyot strategiyasini ishlab chiqing.
17. Robotlashtirilgan tizimlar va dronlarni birlashtirib, innovatsion ish oqimlarini yarating.
18. Axborot tizimlari va mijoz qoniqishini oshirish bo'yicha birlashtirilgan strategik modelni ishlab chiqing.
19. Milliy pochta tizimini xalqaro standartlar asosida raqobatbardosh qilish bo'yicha integratsiyalashgan model yarating.
20. Pochta injiniringida ilg'or texnologiyalarni (AI, IoT, blokcheyn) birlashtirib, to'liq innovatsion strategiya ishlab chiqing.

*Yakuniy nazorat imtihoni biletida 5 ta savol (har bir darajaga mansub bittadan) beriladi. Har bir savolning javobi 10 ballik mezonda baholanadi. Jami 50 ball.*

**Raqamli texnologiyalar konvergentsiyasi  
kafedrasi dotsenti**

**S.Raximova**